DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23913337

GLOBAL PERSPECTIVES
LAW ENFORCEMENT, CYBER DEFENSE AND MULTIDISCIPLINARY INNOVATION

VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA JINOIY XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mengboyev Erkin Baxtiyor o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Annotatsiya: Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoiy xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy, psixologik, huquqiy va kriminogen xususiyatlari tadqiq etilgan. Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishining sabablari, oiladagi nosog‘lom muhit, tarbiyasizlik, noqonuniy guruhlar ta’siri hamda deviant xulq-atvorni barvaqt aniqlash mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish va ularni sog‘lom turmush tarziga qaytarish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar, jinoiy xulq-atvor, deviant xulq, huquqbuzarliklar profilaktikasi, oilaviy muhit, tarbiyasizlik, kriminogen omillar, psixologik xususiyatlar, profilaktika inspektori, yoshlar tarbiyasi.

Jamiyatimizda yosh avlodni sog‘lom, barkamol va huquqiy ong-u tafakkur ruhida tarbiyalash davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq, hayotda o‘z o‘rnini topib ulgurmagan, psixologik jihatdan shakllanib borayotgan voyaga yetmaganlar o‘rtasida ba’zan deviant va jinoiy xulq-atvor holatlari uchrab turishi jamiyat osoyishtaligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoiy xulq-atvorning shakllanishi bir kunda yuzaga kelmaydigan, balki uzoq vaqt davomida salbiy ijtimoiy-psixologik sharoitlar ta’sirida shakllanib boradigan murakkab jarayondir [1].

O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonuni hamda Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlarning huquqiy maqomi, ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning profilaktikasi va javobgarlik masalalari qat’iy belgilab berilgan [2].

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoiy xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy kriminogen omillar quyidagilardan iborat:

Oilaviy muhitning nosog‘lomligi: Oila ajrimlari, ota-onalarning chet elda uzoq muddat bo‘lishi, farzand tarbiyasiga beparvolik, ota-ona yoki qarindoshlar tomonidan sodir etiladigan zo‘ravonlik holatlari;

Tarbiyasizlik va salbiy muhit ta’siri: Ko‘chadagi tasodifiy va deviant xulq-atvorli tengdoshlar guruhiga qo‘shilib qolish, maktabda o‘qishga bo‘lgan qiziqishning pasayishi va dars qoldirishlar [3];

Internet va axborot makonining salbiy ta’siri: Tarmoqda zo‘ravonlik, shafqatsizlik va g‘ayriijtimoiy g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi kontentlarning voyaga yetmaganlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi.

Shunday qilib, voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoiy xulq-atvorning kelib chiqish sabablarini chuqur o‘rganish va ularni barvaqt aniqlash profilaktika organlarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoiy xulq-atvorning barvaqt oldini olish va ularning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash kompleks hamkorlikni hamda manziliy profilaktik choralarni talab etadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda faqatgina jazo choralarini qo‘llaish yetarli emas, balki ularning ichki dunyosi, psixologiyasi va yashash sharoitini sog‘lomlashtirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [1].

Ushbu yo‘nalishdagi profilaktik tadbirlarni samarali tashkil etishning asosiy amaliy mexanizmlari quyidagilardan iborat:

1. Manzilli profilaktika va psixokorreksion yondashuv. Profilaktika inspektorlari maktab psixologlari bilan hamkorlikda deviant xulq-atvorga moyil, darslarni sababsiz qoldiradigan yoki tarbiyasi og‘ir o‘smirlarning shaxsiy psixologik kartasini yuritadi. Ular bilan maxsus psixokorreksion suhbatlar va treninglar o‘tkazilib, agressivlik va salbiy reaksiyalarning oldi olinadi [2].

2. «Mahalla yettiligi» va oila institutining mas’uliyatini oshiirish. Oilasida nosog‘lom muhit hukm surayotgan, ota-onasi chet elda bo‘lgan yoki yetarlicha e’tibor ko‘rilmayotgan voyaga yetmaganlar alohida nazoratga olinadi. Ota-onalarning farzand tarbiyasi uchun huquqiy va ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytirish borasida tushuntirish ishlari olib boriladi [3].

3. Bosh vaqtni mazmunli tashkil etish va bandligini ta’minlash. O‘smirlarning sport to‘garaklari, fan to‘garaklari hamda kasb-hunar markazlariga qatnashini tashkil etish orqali ularning bo‘sh vaqtini foydali mashg‘ulotlar bilan band qilish, jinoiy muhit ta’siridan asrash [4].

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoiy xulq-atvor shakllanishining oldini olish faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, voyaga yetmaganlar uchun «Yoshlar psixologik ko‘mak» elektron platformasini yaratish. O‘smirlar va ularning ota-onalari munosabatlaridagi muammolarni hal qilish uchun anonim tarzda professional psixologlardan onlayn maslahat olish imkonini beruvchi raqamli platformani joriy etish [5];

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23913337

Ikkinchidan, ta’lim muassasalarida huquqiy targ‘ibotning yangi formatlarini qo‘llaash. Qonunbuzarlikning salbiy oqibatlarini jonli misollar va interaktiv ko‘rgazmali vositalar orqali tushuntirishga qaratilgan huquqiy soatlar hajmini oshirish;

Uchinchidan, profilaktika inspektorlarining pedagogik-psixologik malakasini oshirish kurslarini takomillashtirish. O‘smirlar psixologiyasi, ular bilan muloqot qilishning nostaandart usullari hamda konfliktologiya bo‘yicha maxsus treninglarni muntazam ravishda tashkil etib borish.

Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoiy xulq-atvor shakllanishining oldini olish va ularni sog‘lom turmush tarziga qaytarish — jamiyatimizning barqaror kelajagi hamda sog‘lom avlodni tarbiyalashning eng muhim kafolati hisoblanadi.

REFERENCES:

1.O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-371-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.05.2014-y.

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.

3. Voyaga yetmaganlar profilaktikasi: Darslik / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – B. 150–168.

4. Yoshlar deviant xulq-atvorining oldini olishning ijtimoiy-psixologik asoslari: Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 170 b.

5. Kriminologiya: Darslik / y.f.d., prof. Z. S. Zaripov tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – B. 280–295.